



Issues of financial support and provision of material and technical resources for the school system in Uzbekistan during the Soviet era

Nargizakhon SHARIPOVA¹

Kokand branch of Tashkent State Technical University named after Islam Karimov

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 20 January 2025

Available online

15 February 2025

Keywords:

school,
building,
ministry,
material,
conditions,
teacher,
classroom.

ABSTRACT

One of the most important factors in improving the quality of education is the material and technical infrastructure. Analyzing the achievements and shortcomings of the public education system from the 1960s to 1980s contributes to enhancing the effectiveness of modern education. This article examines the state of funds and material resources allocated for education, and discusses the deficiencies that were identified.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss1/S-pp480-488>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbekistonda sovet hokimiyati yillarida maktab tizimini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va moddiy-texnik bazasini ta'minlash masalalari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

maktab,
bino,
ministrlik,
moddiy,
sharoit,
o'qituvchi,
sinf xonasi.

Ta'lim sifati ko'tarilishining eng muhim omillaridan biri moddiy-texnik bazadir. O'tgan asrning 60–80-yillarida xalq ta'limi tizimining yutuq va kamchiliklariga nazar solish va tahlil qilish bugungi kun ta'limining samaradorligini oshirishga hissa qo'shadi.

¹ PhD, Senior Lecturer, Kokand branch of Tashkent State Technical University named after Islam Karimov.
E-mail: nar.kokand@gmail.com

Вопросы финансовой поддержки и обеспечения материально-технической базы школьной системы в годы советской власти в Узбекистане

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

школа,
здание,
министерство,
материал,
условия,
учитель,
класс.

Одним из важнейших факторов повышения качества образования является материально-техническая база. Анализ достижений и недостатков системы народного образования 60–80-х годов прошлого столетия способствует повышению эффективности современного образования. В статье уточняется состояние средств и материально-технической базы, выделяемых на образование, и рассматриваются допущенные недостатки.

KIRISH

Dunyoda shunday kasblar borki uning egalari uchun maxsus mehnat sharoiti yaratilib, mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga amal qilinadi. Pedagoglar uchun qulay sharoit – bu keng va ozoda, jihozlangan sinf xonasi, darsdan bo‘sh vaqtlarida dam olish va suhbatlashish uchun o‘qituvchilar xonasidir. Maktabda yaratilgan sharoit, moddiy-texnik baza ta’limning sifat darajasini yaxshilashga hissa qo‘shadi.

METODLAR VA O‘RGANILGANLIK DARAJASI

Maqola umum qabul qilingan tarixiy-metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan. Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy islohotlar aholini turmush darajasini oshirish, mehnat faoliyatini yaxshilash uchun qaratilgan.

Moddiy-texnik baza yaxshilash borasida olib borilgan ishlar va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar tahlili bugungi kunda davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatni aniq belgilab olishga kerakli manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

TADQIQOT NATIJALARI

SSSR Ministrlar Soveti va Sog‘likni saqlash Ministrligi bilan 1962-yil 22-mayda kelishilgan holda qabul qilingan “Umumta’lim maktablari va maktab-internatlaridagi o‘quv xonalarining gigiyenik qoidalari haqida”gi 397-62-sonli [9] qarorda maktab binolari va undagi sinf xonalarining qurilish va jihozlash qoidalari keltirilgan. Unga ko‘ra maktabning xizmat doirasi bolalarning maktabga piyoda kelib ketishini ta’minlaydigan, ularning yoshi hamda rayonning iqlim xususiyatlarini hisobga oladigan bo‘lishi kerak. Shu sababdan shaharlarda maktabgacha bo‘lgan masofa 0,5 kmdan oshmasligi kerak. Qishloq maktablarining xizmat ko‘rsatish doirasi esa 3 kmgacha uzaytirilishi mumkin. 3 kmdan oshiq bo‘lganda bolalarni tashib kelishni yo‘lga qo‘yish zarur bo‘ladi. Shuningdek, sinflarning kattaligi 64 m.kv, kabinet kattaligi 66 m kv, laboratoriya kattaligi esa 70 m kv bo‘lsa, gigiyena talablarini qondiradi deb belgilangan. Agar maktabda 30 dan ortiq sinf xonalari bo‘lsa, 2 ta o‘qituvchilar xonasi bo‘lishi lozim edi. [2.31]

Yuqorida ko‘rsatilgan sanitar-gigiyenik holat va qurilishlarga oid normalar belgilangan qarorlar har o‘n yilda chiqarib turildi. Ammo shunga qaramay, o‘sib borayotgan o‘quvchilar soni mavjud maktablardagi o‘quvchi o‘rnidan bir necha marotaba yuqori bo‘lib, ikki, hatto uch smenalab o‘qitish xususan, maktablarning sanitariya-gigiyenik holati va sig‘imi haqida qarorlar va buyruqlar chiqarilganiga qaramay,

hududlarda moslashtirilgan binolarda o'qitish davom etdi. Respublika miqyosida ko'pgina maktablarda darslar ikki smenada olib borilardi. Ta'lim sohasiga ajratilgan mablag' hisobidan maktablar qurilayotganiga qaramay, o'quvchi o'zni yetishmaslik muammosi dolzarbligicha qoldi. 1959-yilning yanvaridan avgustgacha bo'lgan vaqt ichida O'zbekistonda 40 ta maktab qurilishi rejalashtirilgan bo'lib, shundan 12 tasigina foydalanish uchun topshirildi. [4.63]

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Kengashi tomonidan 1960-yil 27-sentyabrda "Maktablarda o'quv-tarbiya ishlarini tubdan yaxshilash va maktablarda darslarni bir smenada tashkil etish haqida"gi [1.72] qarori e'lon qilindi. Namangan oblasti Norin rayonidagi maktablarni bir smenaga o'tkazish masalasi ko'tarilganda, ko'pgina maktablar moslashtirilgan va avariya holatidagi binolarda joylashtirilganligi aytib o'tiladi. Sinf xonalari tor, qorong'u bo'lib, rayondagi 11-maktab masjidning eski, avariya holatidagi binosiga joylashgan. Xonalar iflos va chang holatida bo'lib, o'qituvchilarning yashashi uchun uy ajratilmay, maktabning ilmiy bo'lim mudiri M. Turdiqulova maktab binosida yashab kelgan. [19.52] Xuddi shunday, Yangiqo'rg'on rayonidagi barcha maktablarda ham o'quv xonalari yetishmagan. Rayondagi maktablar holati o'rganilib, qo'shimcha binolar qurish va kolxozlardan avvalroq olib qo'yilgan binolar qaytarilishi masalasi ko'tarilgan. [19.69]

Respublikada chet tillarini o'qitishni yaxshilash haqidagi tegishli qarorga qo'shimcha ravishda 1960-yil 10-avgustda O'zbekiston KP komiteti byurosining 55/90-sonli qarori qabul qilindi. Unga asosan 1961–1965-yillarda respublikaning oblastlari va Qoraqalpog'istonda bir qancha fanlar chet tillarda o'qitiladigan 30 ta umumiy ta'lim maktablari ochilishi, chet tilini chuqur o'rganish va o'quv protsessini aktivlashtirish maqsadida nurli-ovozli kinotexnikadan(magnitafon o'quv binosi, diafilmlar, o'quv grammplastinkalaridan) maksimal darajada foydalanilish topshirildi [21.31].

Qashqadaryo oblastida 5 yil davomida jami 40 lingafon kabineti jihozlanishi rejalashtirilib, amalda 32 tasi ishlagan.

Qashqadaryo oblastida lingafon kabinetlar tashkil etish bo'yicha reja [21.352]

1-jadval

	1966-yil	1967-yil	1968-yil	1969-yil	1970-yil
Qarshi sh	1	1	1	1	1
Shahrisabz sh	1	1	1	1	1
r/p Kitob	-	-	-	-	-
r/p Yakkabog'	-	-	-	-	-
Jami shahar bo'yicha	2	2	2	2	2
G'uzor rayon	1	1	1	1	1
Qarshi rayon	1	1	1	1	1
Koson rayon	1	1	1	1	1
Qamashi rayon	1	1	1	1	1
Chiroqchi rayon	1	1	1	1	1
Shahrisabz rayon	-	-	-	-	-
Yakkabog' rayon	1	1	1	1	1
Jami rayonlar bo'yicha	6	6	6	6	6
Jami oblast bo'yicha	8	8	8	8	8

Qishloq va shahar maktablarining moddiy-texnik bazasida sezilarli farqlar mavjud bo'lgan. Shahar maktablari ko'proq zamonaviy texnik vositalar, o'quv materiallari va fan laboratoriyalari bilan ta'minlangan bo'lsa, qishloq maktablarida shunchaki amaliyotga mo'ljallangan bazaviy jihozlar mavjud edi.

Ta'limni zamonaviy talablarga moslashtirish uchun maktablar qurish, o'quv materiallari va jihozlar bilan ta'minlanishiga qaramay, shahar va qishloq maktablari o'rtasidagi farqlar barcha ta'lim tizimiga ta'sir etgan [21.61]

Qishloqda yashab, o'qiyotgan barcha o'quvchilarning 75 foizi ikki smenada o'qigan. [11.20] Maktablarning jihozlanishi, o'quv jarayonini sifatli tashkil etish uchun ajratilgan uskunalar soni va sifati bo'yicha shahar maktablari ustunlik qilgan. Toshkent oblasti Olmaliq shahrining 5, 11, 15, 16, 17, 20-maktablarida o'qish kabinet sistemasida tashkil etilgan. Shahar maktablarida 20 ta proektor, 27 ta epidioskop, 52 ta perilmoskop, 23 ta magnitafon, 4 ta televizor, 11 ta radiouzel, 100 ta kinofragment mavjud bo'lib, ammo 1, 2, 4, 7-maktablarda moddiy-texnik baza yaxshi bo'lmagan. [12.13]

Maktablarda o'quvchi va o'qituvchilar uchun ovqatlanish shaxobchalar tashkil etish masalasi ham dolzarb edi. O'zbekiston Ministrlar Soveti va Maorif Ministrligi tomonidan maktablarda bufetlar va oshxonalarni bitirib, ishga tushirilishi qat'iy talab qilindi. O'zbekiston Maorif Ministrligida respublikadagi mavjud maktablarning moddiy-texnik bazasi haqida ma'lumot yuritilgan. Unga ko'ra 1964–1965 o'quv yilida respublikadagi 1516 ta maktabda bufet yo'q edi. Bufet va oshxonasi bo'lgan 5466 ta maktabning ba'zilarida bufet va stolovoylarni moslashtirilgan xonalarda joylashtirish an'anaga aylanib, kam sig'imli, qo'lbola qilib qurilgan xonalarda faoliyat yuritgan. [20.14]

1973–1974 o'quv yiliga tayyorgarlik chog'ida Qoraqalpog'istondagi 63 ta maktabda o'quv jarayonini tashkil etishni imkoni yo'qligi haqida xabar berilgan. Avariya holatidagi maktablar soni o'sib bordi. Respublikadagi mavjud 294 ta maktabdan 105 tasi boshlang'ich, 101 ta 10 yillik, 21 ta 8 yillik maktablar bo'lib, eski binolarda joylashgan. Tipovoy maktablar soni atigi 7 tani tashkil qilgan xolos. Qoraqalpog'iston hududidagi 1029 ta sinf xonasi umuman yaroqsiz holatda edi.

Urushdan keyingi ta'limni ko'tarish va qarovsiz qolgan, ota-onasi iqtisodiy tomondan ta'minlay olmagan o'quvchilarni jamlash uchun 1956-yil 13-sentyabrdagi qarorga asosan maktab-internatlar tashkillandi. [6.365] Bu kabi o'quv muassasalarining ta'minoti ko'proq mablag'ni talab qilardi. Bundan tashqari maktablarda nogironligi bo'lgan bolalar uchun alohida sinflar tashkil etildi. Buning uchun O'zbekiston Oliy Sovetining 1968-yil 24-avgustdagi "Respublikada keyingi ishlarni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 76-sonli qarori ijrosini Toshkent oblasti Olmaliq rayonida bajarilishi yuzasidan hisobotda aytilishicha rayonning 4 va 14-maktablarida aqli ojiz va nogironligi bor bolalar uchun maxsus sinflar tashkil etilgan. [12.11] Bu sinflarda ularga ta'lim berish va qulay sharoit yaratish uchun harakat qilingan.

Surxondaryo oblasti Sho'rchi rayonidagi 4-maktab-internat 1976 yilda avariya holatida bo'lib, 2 ta o'quvchi uchun bitta kravot bo'lgan. Mavjud kravotlarning aksariyati siniq, choyshablari yirtiq holatda, bino elektrlashtirilmagan, yoritish uchun kerosin lampalardan foydalanilgan. Talab bo'yicha yotoqxonada bir kishi uchun 4 m.kv ajratilishi lozim, ammo bu yerda 1,5 m.kvga to'g'ri kelgan. [18.21]

1963-yil holatiga Qashqadaryo oblastining 42 ta maktabi avariya holatida bo'lib, 223 ta maktabning 2575 ta sinf xonasida pol yo'q, 252 maktabning 2621 sinf xonasining shiftlari qoqilmagan. 125 ta maktabda ichimlik suvi, 164 ta maktabga elektr

o'tkazilmagan. 496 maktabning 163 tasida fizika, 312 tasida ximiya, 359 tasida biologiya, 223 ta maktabda mehnat xonasi mavjud bo'lmay, darslarni o'tishda faqat nazariyaga suyanish mumkin edi Aynan Chiroqchi rayonidagi 76 maktabdan 28 tasida elektr, 20 tasida suv tarmog'i, 4 tasida gaz, 8 tasida pol, 12 tasida shift bo'lmagan. Xuddi shunday holat Qamashi, G'uzor, Qarshi rayonlarida ham bo'lgan. [27,37]

O'quvchi soni ko'payishi maktablardagi o'quvchi o'rnini bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqardi. Jumladan, 1964–1965 o'quv yilida respublikadagi 4825 ta maktab bir smenali, 1888 ta maktab ikki smenali, 11 ta maktab 3 smenali ishlagan. Xususan, Samarqand oblastida 1960–1961 o'quv yilida faqat 49 ta maktab ikki smenali o'qigan bo'lsa, 1964–1965 o'quv yiliga kelib 464 ta maktab ikki smenada o'qigan.

Sirdaryo oblasti maktablarida ham sanitariya-gigiena holati yaxshi bo'lmay, o'quvchilar o'rtasida shamollash, ichketar kasalliklari avj olgan. [12.123-124]

Respublikaning boshqa bir oblasti Xorazmda ham ta'limni rivojlantirish uchun turli to'siqlar mavjud bo'lib, o'qituvchilarni yetishmasligi, maktablardagi sanitar-gigienik holat, moddiy-texnik baza yetishmaslik muammolari bo'lgan. Jumladan, 1966–1967 o'quv yilida Xorazm oblastida 393 ta maktab mavjud bo'lib, ularning 98 tasi boshlang'ich, 193 tasi 8 yillik, 102 tasi o'rta maktab bo'lgan. Bu maktablarda ichimlik suvi ta'minoti yaxshi bo'lmagan. Ariza va shikoyatlardan so'ng, tashkilotlar tomonidan 214 ta maktabda trubkali quduq o'rnatilgan. 4440 o'rinli 17 ta maktab kolxozlar tomonidan qurib berilgan. Shovot rayoni va Urganch shahrida davlat mablag'lari hisobidan 1484 o'quvchi o'rinli 2 ta maktab qurilgan. [12.17-21]

O'zbekiston Maorif Ministrligining 1971-yil 17-fevraldagi "Respublika maktablarida sanitar-gigienik ahvolni yaxshilash haqida"gi A-25-son buyrug'i qabul qilindi. Buyruqda 1970-yildagi tekshiruvlar davrida jamlangan statistik ma'lumotlar keltirilgan. Unda aytilishicha, Samarqand oblastidagi 1153 maktabning 367 tasiga elektr tortilmagan, 1041 tasi gazlashtirilmagan, 316 tasida pol va 484 tasida shift qoqilmagan. Xususan, Payariq rayonidagi 70 maktabdan 50 tasida elektr, 65 tasida vodoprovod, 70 tasida gaz, 10 tasida yer pol, 23 tasida shift qoqilmagan.

Ayrim holatlarda arxiv materiallari va davriy nashr ma'lumotlari bir-birini inkor etadi. Xususan, yuqoridagilarning aksi o'laroq, aynan davrda Samarqand oblastida xalq maorifi ehtiyojlariga 64 mln 257 ming, 1972 o'quv yilida qariyb 75 million so'm sarflanganligi va 1970–1971 o'quv yili oblastda 24616 o'quvchiga mo'jallangan maktab binolari qurilib foydalanishga topshirilganligi aytiladi. Ammo qurib topshirilayotgan maktablardagi qulayliklar va moslashtirilgan binolarning salbiy holati hisobotlarda aks ettiriladi.

Maktabdagi noqulay sharoitlar Surxondaryo oblastida ham kuzatilib, 1971–1972 o'quv yilida oblastdagi maktablarning holati tekshirilganda 564 ta sinfda pol va 829 ta sinfda shifti qoqilmaganligi aniqlangan. [13.36]

Samarqand oblastida 1162 ta maktablar bo'lib, 969 tasida ishlab chiqarish ta'limi joriy etilgan. Bu maktablarning barchasida ham yetarli jihozlar mavjud emas edi. [23.203] Mazkur maktablarning 472 tasi yog'ochni qayta ishlash, 158 tasida metallga ishlov berish, 203 tasida umumiy ustaxonalar, 194 tasida tikuv sexi, 94 tasida umumiy-texnik kabinetlar, 686 tasi tajriba uchastkalari mavjud bo'lgan. 383 brigadada 6921 nafar 7–10 sinflar tahsil oladi, 31 ta maktabda shofyorlik, 4 ta maktabda maishiy xizmat bo'yicha, 1 ta maktabda mashinistlik va ish yuritish o'rgatilgan. [23.260] 1971–1976-yillarda maktablarning moddiy texnik bazasi kuchaytirilgan. Bir yilda 300 o'quvchi o'rniga mo'jallangan 32 ta sinf xonasi qurilgan. Ammo maktablarda asosan sinf xonalari yaratilib, o'qituvchilar uchun dam olish xonalari ko'zda tutilmagan. [24.23]

Tejalish va ishlatmay qolingan qoldiq mablag'lar ta'limning moddiy texnik bazasi uchun ajratilayotgan summani kamaytirilishiga olib keldi. Qoraqalpog'istonning Nukus shahridagi Pushkin nomidagi maktabga 1964-yilda 15,5 ming so'm ajratilgan. Ammo amalda 5.5 ming so'mlik jihozlar ajratilgan. Toshkent shahridagi 141-sonli Kuybeshev maktabiga 13,2 ming o'rniga 3 ming so'm, Samarqand shahridagi 16-maktabga kapital ta'mirga 15 ming o'rniga 7 ming so'm ajratilgan. Yetmagan summani keyingi yilga ajratilishi kuzatilgan. Shuningdek Toshkent shahridagi 149-maktabga 8 ming o'rniga 1 ming so'm, 55-maktabga 15,9 o'rniga 5 ming so'm berilgan. Respublika taftish komissiyasi tomonidan o'tkazilgan tekshiruvda amalda qilingan ishlar kamligini, so'ralgan mablag' oshirib yuborilganligi aytiladi. Ammo berilgan pulga yarasha ish qilinganligi aytilmaydi. [10.53]

Moddiy texnik bazani mustahkamlash uchun byudjetdan ajratilgan pullarni o'zlashtirish bo'yicha 1974-yilni 9 oyiga nisbatan ko'rsatkichlar: [14.59]

2-jadval

	1974-yilga tasdiqlangan	Aniqlangan	9 oy davomida o'zlashtirilgan	foizda
Bog'chalar	77778	78791	57900	75.5
Maktablar	501162	504985	373814	74.0
Maktab-internat	19530	19585	13794	70.4
Kechki va sirtqi	19032	19032	13037	68.5
Maktab qoshidagi internat	7639	7639	4609	60.3
Ped uchilise	9540	9733	7249	74.5
Ped.vuzlar	23607	24445	18046	73.8

Sovxoz-kolxozlar, tashkilotlar tomonidan maktablar va o'qituvchilar uchun turar-joylar qurib berish vazifasi yuklatildi. Ammo mablag' yo'qligini sabab qilib, rejalarni bajarmaslik, loyihani o'z vaqtida topshirmaslik holatlari ko'p uchradi. Toshkent oblastida ta'lim tizimi muassasalari qurish uchun 1965-yilda 51104 ming rubl ajratilishi ko'zda tutilgan bo'lib, summaning 49314 ming rubli o'zlashtirilgan. [22.21]

Yuqorida keltirilgan faktlarga zid ravishda maktablarni moddiy texnik bazasini boyitish uchun ajratilgan pullar ham oxirigacha o'zlashtirilmagan. Masalan, Toshkent oblastidagi Oqqo'rg'on rayonida 92 foizga, Bekobod rayonida 66 foiz, Bo'ka rayonida 92 foiz, Kalilin rayonida 75 foizi o'zlashtirilgan xolos. [22.54]

Respublikada 600 dan ziyod maktab avariya holatida ishlagan. 1293 ta maktab elektrsiz, faqat 3,5 foiz maktablar markaziy isitish sistemasiga ulangan. 12 foizi vodoprovod va 2 foizi kanalizatsiyaga ulangan. Samarqand, Surxondaryo, Xorazm, Sirdaryo oblastlaridagi maktablarning moddiy-texnik bazasida jiddiy yetishmovchiliklar bo'lgan. [15.114]

Maorif Ministrligi ixtiyoridagi maktablarni gazlashtirish va elektrlashtirish bo'yicha topshiriq [16.94]

Hududlar	1969-72-yillarda elektrlashtirish	Suv bilan ta'minlash	1969-75-yillarda 8-yillik maktablarni gaz bilan ta'minlash
Qoraqalpog'iston	700	800	180
Andijon	750	1300	200
Buxoro	700	800	160

Qashqadaryo	900	1000	150
Namangan	600	1200	120
Samarqand	1500	2200	300
Surxondaryo	600	900	120
Sirdaryo	500	1000	150
Toshkent vil.	650	1200	220
Toshkent shahri	-	100	150
Farg'ona	700	1000	150
Xorazm	400	500	100
Jami	8000	12000	2000

Jizzax oblastidagi maktablarning sanitar-gigienik holati tekshirilganda, maktablarning sig'imi 121280 ming, amalda esa 122409 nafar o'quvchi tahsil olgan. Bu rejadagidan 1129 nafar ko'p, dars xonalarida sanitar norma bir o'quvchiga 1,25 metr kv tashkil etishi, ammo oblastda normalar buzilayotganligi aytilgan. [25.34] Oblastdagi sinf xonalari 43 metr kv bo'lgani holda 41 nafar o'quvchi bitta partada 3 kishidan joylashtirilganligi sanitar normaga mos kelmasligi tanqid qilinadi. Lekin tekshiruv natijalariga avvalgilariga o'xshab, qog'ozda qolib ketdi. [26.46]

Maktablar soni asta-sekinlik bilan ko'payib bordi. Reja bilan hayotiy haqiqatni mos kelmasligi statistik ma'lumotlarda ham o'z aksini topdi. 1976 yilda respublikada 7307 maktab, 3535,1 o'quvchi tahsil olar, bu rejadagidan 35 mingdan ortiq o'quvchi o'rniga ehtiyoj borligini bildirar edi.

Zudlik bilan maktablar qurish, ularni moddiy-texnik bazasini rivojlantirish talab etilgan bir vaqtda, qoldiq sistemasida mablag' ajratish, shusiz ham qiyin ahvolda qolgan ta'limni ayanchli holatga tushirib qo'ydi. Besh yilga mo'jallangan rejalarda aks etgan raqamlarni ro'yobga chiqarish katta mablag'ni talab etardi. Har bir oblastlarda xalq ta'limini har tomonlama rivojlantirishning besh yillik rejalari tuzib, tasdiqlandi. Hududlarda rejani amalga oshishi maksimum 75 foizni tashkil etdi.

Respublikada 1980-1981 o'quv yilida 7645 ta maktablar faoliyat yuritib, ularning 72 foizi ikki smenada ish olib borgan. [17.4] Maktablar soni ko'paygan sari, ikki va uch smenali maktablar ham ko'payib bordi. 1990-1991 o'quv yiliga kelib respublikadagi 2589 ta maktab bir smenada, 5661 ta maktab ikki va uch smenada o'qitdi. [3.112]

Kechki va sirtqi maktablarda ham o'qituvchilar faoliyat yuritib, u yerda ham moddiy-texnik baza yaxshi emas edi. Jumladan Jizzax oblast Paxtakor Zomin, Mirzacho'l rayonlaridagi kechki yoshlar maktabining moddiy-texnik ahvoli juda yomon bo'lgan. Jizzax shahridagi 1-maktabning 2 ta binosida jami 7 ta sinf xonasi mavjud bo'lib, ularda 480 nafar o'quvchi o'qigan. Maktablarda oshxonaning bo'lmasligi, ishdan keyin kelib o'qiyotgan o'quvchilar va o'qituvchilar jamoasining noroziligiga sabab bo'lgan. [7.4]

Qayta qurish, oshkoralik va demokratiya davriga kelib davriy nashrlarda ham ochiq-oydin fikrlar nashr etila boshlandi. Jumladan, 1989-yilda e'lon qilingan "Maktabning egasi kim?" mavzusidagi maqolada maktab huquqiy jihatdan rayon maorif bo'limiga, ammo iqtisodiy jihatdan o'zi joylashgan hududdagi bo'linmaga qarashi, kolxoz yoki sovxoz rahbarlarining barchasi ham maktabga yordam bermasligi ta'kidlanadi. Pul yetishmayapti degan bahona sababli ta'lim muassasalari kambag'allashishiga olib kelayotgani aytiladi.

XX asrning 80-yillariga kelib, qoldiq sistemasi asosida ishlayotgan ta'limning moddiy bazasi yanada ortda qola boshladi. 1980-1981 o'quv yilida respublikadagi mavjud 7499 ta maktabdan 6146 tasi qishloq hududlarida faoliyat olib borib, yarmidan

ko'pi – 4255 tasi moslashtirilgan binolarda joylashgan va 700 tasi avariya holatida bo'lgan. Bu maktablarda oshxona, sport zal, isitish tizimi, hattoki, kanalizatsiya mavjud emas edi. Katta qism, ya'ni 5880 ta maktabda ikki smenada o'qilgan. Viloyat va tuman markazlaridan uzoqda joylashgan maktablarda ta'lim ishlar sustlashib, zamonaviy talablardan ortda qoldi.

1989-yil 3-avgust kuni O'zbekiston Ministrlar Soveti Prezidiumining majlisida umumiy ta'lim maktablarining avariya holatidagi binolarini tugatish bo'yicha qo'shimcha tadbirlar haqidagi masala ko'rib chiqildi. Respublikada tashkil etilayotgan uzluksiz ta'lim sistemasining asosiy bo'g'ini – maktab moddiy-texnik bazasining o'ta bo'shligi pedagoglar, ot-onalar, o'quvchilarning noroziligiga sabab bo'layotganligi ta'kidlandi. Avariya holatidagi maktablarni turg'unlik yillarining sharmandali ko'rinishi deb hisoblandi. [7.4]

XULOSA

Yuqorida keltirilgan barcha faktlar, statistik ma'lumotlar, jadvallarning asosi mablag'ga borib taqaladi. O'zbekiston davlat budjetidan aynan barcha turdagi umumta'lim maktablariga sarflanayotgan pul 1980-yilda 679,2 mln rubl bo'lgan bo'lsa, 1990 yilga kelib 1508,3 mlanni tashkil etdi. Ammo ajratilgan summalarga qaramay, xalq ta'limining moddiy texnik holati ayanchliligicha qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Рахманов Н. Развитие педагогического образования в Узбекистане. – Т.: Узбекистан, 1976. – С 72.
2. Solixo'jaeva S., Fayzieva M.F. Umuta'lim va hunar maktabi islohoti sharoitida o'quvchilar gigienasi. – 31 bet.
3. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 г. стат. ежегодник – Ташкент, Узбекистон. – 1991. – 112 стр, 340.
4. Статистический бюллетень. №10 (32) Ташкент, 1959. – 63 с.
5. Иванова Г.М. Мегапроект Хрущева – школы-интернаты: от утопии к реальности. /Известия Самарского научного Российской академии наук, т20, №3(2) 2018. – С.365.
6. Ahmedov S., Saidov S. Kechki maktab muammolari.//O'qituvchilar gazetasi. 1979 yil 21 yanvar. – 4-bet.
7. Avariya holatidagi maktablar yo'qotilsin.// O'qituvchilar gazetasi., 1989 yil, 12-avgust, 1 bet
8. <https://wfi.lomasm.ru/>
9. O'zMA, 93-fond, 15-ro'yxat, 2291-ish, 58-varaq.
10. O'zMA, 837-fond, 41-ro'yxat, 7061-ish, 20-varaq.
11. O'zMA, 2454-fond, 6-ro'yxat, 1243-ish, 11, 13-varaq, 17-21, 123-124.
12. O'zMA, 2454-fond, 6-ro'yxat, 2299-ish, 36-varaq.
13. O'zMA, 2454-fond, 6-ro'yxat, 2740-ish, 59-varaq.
14. O'zMA, 2454-fond, 6-ro'yxat, 1243-ish, 114-varaq.
15. O'zMA, 2454-fond, 6-ro'yxat, 1796-ish, 94-varaq.
16. O'zMA, 2454-fond, 6-ro'yxat, 4258-ish, 4-varaq.
17. O'zMA, 2582-fond, 1-ro'yxat, 2489-ish, 21-varaq.
18. NamVDA, 505-fond, 1-ro'yxat, 58-ish, 52-varaq.
19. ToshVDA, 530-fond, 1 ro'yxat, 175-ish, 14-varaq.

20. ToshVDA, 530-fond, 1-ro'yxat, 1435 ish, 31-varaq, 61, 352.
21. ToshVDA, 530-fond, 1-ro'yxat, 1744-ish 21-varaq, 54-varaq.
22. SamDVA, 1820-fond, 1-ro'yxat, 40-ish, 203-varaq, 260-varaq.
23. SamDVA, 942-fond, 4-ro'yxat, 790-ish, 23-varaq.
24. Jizzax VDA, 13-fond, 1-ro'yxat, 33-ish, 34-varaq.
25. JizzaxVDA, 24-fond, 1-ro'yxat, 146-ish, 46-varaq.
26. QashVDA, 249-fond, 1-ro'yxat, 543-ish, 37-varaq.